

“DEHQONOBOD KALIY ZAVODI” AJ JAMOASIGA

// 23.08.2025

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/dehqonobod-kaliy-zavodi-aj-jamoasiga>



Ayni kunlarda mamlakatimiz bo‘ylab eng ulug‘, eng aziz bayram – jonajon Vatanimiz mustaqilligining 34 yillik bayrami shukuhi kezmogda.

Mana shunday shukuhli damlarda yurtimiz kimyo sanoatining yirik korxonalaridan biri “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ jamoasi korxonalar tashkil etilganining 15 yilligini keng nishonlamoqda. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ O‘zbekiston Respublikasi kimyo sanoati tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega. Zavod mahsuloti nafaqat respublikamiz qishloq xo‘jaligi ehtiyojlarini qondiradi, balki chet mamlakatlarga ham eksport qilinadigan xaridorgir mahsulot hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining kimyo sanoatini yanada rivojlantirishga qaratilgan doimiy e‘tibori natijasida tarmoq korxonalarining faoliyatini takomillashtirish hamda ularning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish borasida qabul qilinayotgan qaror va farmonlar ijrosini ta‘minlashda “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ fidoiy jamoasining beqiyos mehnati e‘tirof etmasdan bo‘lmas.

Qadrli “Dehqonobod kaliy zavodi” jamoasi!

Yurtimiz kimyo sanoatini yanada rivojlantirishda hamda yangidan yangi kimyo korxonalarining barpo etilishida erishilayotgan barcha yutuqlarda, Siz azizlarning munosib hissangiz borligini barchamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Barchangizni “Dehqonobod kaliy zavodi” tashkil etilganligining 15 yilligi va O‘zbekiston Respublikasi

Mustaqilligining 34 yilligi bilan samimiy tabriklaymiz. Barchangizga sihat-salomatlik, baxt-saodat, xonadoningizga tinchlik-xotirjamlik, mamlakatimiz kimyo sanoati rivoji yo'lidagi fidokorona faoliyatingizda yangi yutuq va zafarlar tilaymiz.

**Hurmat va ehtirom bilan,
"O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisi
Odil Temirov**